

2025-yil “28” “fevral” dagi 03-03-2025
Startaplar ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha
Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi
bayoniga 5-sonli ilova

**Inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik
subyektlariga mentorlar va trenerlarni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlarni
kompensatsiya qilish mexanizmi to‘g‘risida**

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Startap-loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sun qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga mentor va trenerlarni jalb etish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

Dastur – raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamlı startaplar dasturi;

Platforma – Startap loyihalar ekotizimi platformasi (www.startupbase.uz);

Direksiya – “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ;

Da’vogar – yuridik shaxs shaklida ro‘yxatdan o‘tgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, Dastur ishtirokchisi hisoblangan, O‘zbekiston Respublikasi hududida inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshirayotgan, xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya olishga da’vo qilayotgan tadbirkorlik subyektlari;

Xarajatlarni qoplash – inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga mentorlar va trenerlarni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

Mentor, trener – bu startaplarga qo‘llab-quvvatlash va ta’lim berish, ularga biznes g‘oyalarini rivojlantirish, loyihalarni boshqarish ko‘nikmalarini yaxshilash va xatolardan qochish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda yordam beradigan murabbiy (keyingi o‘rinlarda mentor deb yuritiladi);

Akseleratsiya dasturi – mentorlik, ixtisoslashtirilgan o‘quv tadbirlari va ekspert maslahatlari orqali startaplarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan ta’lim

tashabbusi bo‘lib, yangi bozorlarga kengayish va investitsiyalarni jalg qilish salohiyatiga ega startaplarni jadal rivojlantirish imkonini beradi;

Inkubatsiya dasturi – bu startaplarni rivojlanishning dastlabki bosqichida qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan, g‘oyani amaliy biznesga aylantirishga qaratilgan maxsus ta’lim dasturi;

Ekspert komissiyasi – Dasturda ishtirok etish uchun arizalarni ko‘rib chiqish, Dastur ishtirokchisi maqomini olishga da‘vogar bo‘lgan nomzodlarning biznes-rejalarini tahlil qilish maqsadida Direksiya huzurida malakali mutaxassislardan tashkil etiladigan organ;

3. Xarajatlar kompensatsiyasi ushbu Nizomda belgilangan talablar va mezonlarga muvofiq bo‘lgan da‘vogarlarga tatbiq etiladi.

4. Direksiya bilan startaplar ekotizimini rivojlantirish doirasida hamkorlik to‘g‘risida amaldagi shartnomalariga ega bo‘lgan, inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish maqsadida jalg etilgan tadbirkorlik subyektlari xarajatlarni kompensatsiya qilishga da‘vogar bo‘la olmaydi.

5. Da‘vogarlar uchun xarajatlarni qoplash ushbu Nizomga 1-ilovadagi sxemaga muvofiq Direksianing pul mablag‘lari hisobidan inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturi yakunlangandan so‘ng amalga oshiriladi.

6. Da‘vogarlarning arizalari va hujjatlarini ko‘rib chiqish, shuningdek xarajatlarni kompensatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish maqsadida Direksiya huzurida kamida besh nafar ekspert va kotibdan iborat Ekspert komissiyasi tuziladi.

7. Ekspert komissiyasining tarkibi va ish tartibi Direksiya tomonidan ularning ichki nizomlariga muvofiq belgilanadi.

II. Xarajatlarni kompensatsiya qilish shartlari va tartibi

8. Inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga mentor va trenerlarni jalg qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun da‘vogarlar quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- startaplar ekotizimi ishtirokchisi sifatida platformada ro‘yxatdan o‘tganligi;
- kamida bir yil faoliyat yuritayotgan yuridik shaxsga egaligi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishi hamda portfelida kamida ikkita muvaffaqiyatli o‘tkazilgan inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari mavjudligi;
- inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturining yakuniy bosqichlarida Demo kun (Demo Day) tadbirini tashkil etish, bu yerda startaplar o‘z loyihalarini potensial investorlarga taqdim etadilar.

9. Xarajatlarni kompensatsiya qilish inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturi haqidagi ma'lumotlar tavsifini hamda zarur hujjatlar ro'yxatini o'z ichiga olgan topshirilgan arizalar asosida amalga oshiriladi.

10. Xarajatlarni kompensatsiya qilishning eng yuqori miqdori umumiylar xarajatlarning 50 foizini tashkil etishi mumkin, biroq bu yiliga 50 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmasligi lozim. Bunda, da'vogarlar bir kalendar yili davomida ikki marta xarajatlarni kompensatsiya qilish uchun ariza topshirishga haqli.

Agar da'vogar bir kalendar yili davomida uchinchi marta xarajatlarni kompensatsiya qilish zaruriyatiga duch kelsa, bunday holda xarajatlarni kompensatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish masalasi Direksiya ixtiyorida qoladi.

11. Xarajatlarni kompensatsiya qilish summasi ushbu Nizomga 2-ilovada ko'zda tutilgan hisoblash usuliga muvofiq, quyidagi ko'rsatkichlar asosida foiz nisbatida aniqlanadi:

- inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etgan startaplarning umumiylar soni;
- muvaffaqiyatli yakunlangan inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturlari soni, bunda inkubatsiya dasturi uchun — startaplarda dastlabki sotuvlarning mavjudligi, akseleratsiya dasturi uchun esa — startapni kengaytirish natijalari hisobga olinadi;
- mentorlarning malakasi va kasbiy tajribasi, mentor ishtirok etgan dasturlar soni, ushbu dasturlarning mahalliy yoki xorijiy ekanligini hisobga olgan holda;
- dasturlarni o'tkazish shakli;
- mentorlar faoliyati bozorining ko'lami.

III. Kompensatsiya berish uchun arizalar topshirish tartibi

12. Da'vogar xarajatlarni qoplashning mumkin bo'lgan summasini baholash maqsadida inkubatsiya (akseleratsiya) dasturi boshlanishidan oldin platformada dastlabki ariza berishi kerak.

13. Dastlabki arizalar asosida, ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq platformada avtomatik hisoblash usuli bilan, da'vogarga xarajatlarni qoplash mumkin bo'lgan summa ko'rsatilgan xabarnoma yuboriladi.

Bunda hisoblangan summa yakuniy hisoblanmaydi va ariza topshirilgandan hamda tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan so'ng o'zgarishi mumkin.

14. Xarajatlarni qoplash uchun, da'vogar Direksiya tomonidan tasdiqlangan shaklda platformaga ariza topshirishi va unga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi lozim:

- dasturni o‘tkazish bo‘yicha yakuniy hisobot, unga ishtirokchilar va mentorlar ro‘yxati, dasturning maqsad va natijalari hamda fotohisobot kiritilishi kerak;
- jalb etilgan mentorlar bilan tuzilgan shartnomalar va (yoki) kelishuvlar nusxalari, ko‘rsatilgan xizmatlar dalolatnomalari nusxalari, to‘lov topshiriqnomalari nusxalari, zarur hollarda bank ko‘chirmasi ham talab qilinishi mumkin;
- haqiqiy xarajatlarni tasdiqlovchi moliyaviy hisobot;
- cheklar, bank ko‘chirmalari, hisob-fakturalar va boshqalar.

IV. Arizalarni ko‘rib chiqish tartibi

15. Ariza Ekspert komissiyasi tomonidan ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq sxemaga mos ravishda 15 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi.

16. Ekspert komissiyasi kotibi ariza kelib tushgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida ilova qilinayotgan hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi va to‘liqligini tekshiradi.

17. Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlangan, shuningdek ishonchsiz (noto‘g‘ri) ma’lumotlar aniqlangan, shuningdek majburiy ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan taqdirda Ekspert komissiyasi arizani ko‘rib chiqishni rad etishga haqli.

18. Ekspert komissiyasi 10 (o‘n) ish kuni mobaynida arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqadi. Arizani ko‘rib chiqish natijalaridan kelib chiqqan holda Ekspert komissiyasi xarajatlarni kompensatsiya qilishni ma’qullah yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ma’qullangan taqdirda, da’vogar xarajatlarni qoplashning kelishilgan miqdori va kompensatsiya olish uchun talablar ro‘yxati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan platformada bog‘langan elektron pochta orqali xabarnoma oladi.

Rad etilgan taqdirda ariza beruvchiga rad etish sababi ko‘rsatilgan holda rad etish to‘g‘risida bildirishnomasi yuboriladi.

19. Ekspert komissiyasining qarorlari bayonnomasi tarzida rasmiylashtiriladi, uzil-kesil hisoblanadi va nizolashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

20. Zarurat bo‘lganda, Ekspert komissiyasi tomonidan da’vogar bilan suhbat tashkil etilishi mumkin.

21. Ariza ma’qullangan taqdirda xarajatlarni qoplash bo‘yicha mablag‘lar Direksiya bilan xarajatlarni qoplash to‘g‘risida bitim tuzilgan paytdan boshlab 10 (o‘n) bank kuni mobaynida da’vogarning bank hisob raqamiga o‘tkaziladi.

22. Arizalarni ko‘rib chiqishda Ekspert komissiyasi ushbu Nizomda bayon etilgan talablar va shartlarga amal qiladi.

V. Kompensatsiya berishni rad etish asoslari

23. Xarajatlarni kompensatsiya qilishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:

- ushbu Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan shartlarga mos kelmasligi;
- ushbu Nizom talablariga amal qilmaslik;
- ishonchsiz (noto‘g‘ri) ma’lumotlarni taqdim etish yoki majburiy ma’lumotlarni taqdim etmaslik;
- trener/mentorning haqiqiy xarajatlari yoki malakasini tasdiqlovchi zarus hujjatlarning yo‘qligi;
- maqsadsiz yoki oldindan ma’lum qilinmagan xarajatlar holatlari aniqlanishi;
- da’vogar va trener (mentor) o‘rtasida xizmatlar narxini oshirish bo‘yicha kelishuv holati aniqlanishi.

24. Xarajatlarni kompensatsiya qilish rad etilgan taqdirda, Ekspertlar komissiyasi tegishli qaror qabul qiladi va rad etish sabablarini ko‘rsatgan holda da’vogarga xabarnoma yuboradi.

25. Xarajatlarni kompensatsiya qilish rad etilgan taqdirda, da’vogar Ekspertlar komissiyasi tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va qaytadan ariza topshirish huquqiga ega.

VI. Yakuniy qoidalar

26. Ushbu Nizom tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlari va taqdim etilayotgan qoplash mexanizmining samaradorligi tahlili natijalariga ko‘ra har yili qayta ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi mumkin.

27. Direksiya qoplash uchun ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish va kuzatib borish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

28. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish Direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga mentor va trenerlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarni kompensatsiya qilish mexanizmi to'g'risidagi nizomga
1-ilova

Inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga mentor va trenerlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarni kompensatsiya qilish mexanizmi hamda arizalarni ko'rib chiqish
SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Da'vogar	Kompensatsiya summasini baholash uchun platformada dastlabki arizani topshiradi.	Zarur bo'lgan hollarda
2-bosqich	Direksiya Platforma	Dastlabki arizani tekshiradi, mumkin bo'lgan kompensatsiya miqdorini baholaydi va Da'vogarga tegishli xabarnomani jo'natadi.	Arizalar kelib tushishiga qarab (avtomatik ravishda)
3-bosqich	Da'vogar	Inkubatsiya (akseleratsiya) dasturi o'tkazilgandan so'ng xarajatlarni qoplash uchun ariza topshiradi va zarur tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qiladi.	Inkubatsiya (akseleratsiya) dasturi yakunlangandan so'ng, zarurat tug'ilgan holatlarda
4-bosqich	Direksiya	<p>Arizaning to'g'ri rasmiylashtirilganligini va ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini tekshiradi.</p> <p>a) Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlanganda, shuningdek, majburiy ma'lumotlarda ishonchhsiz (noto'g'ri) ma'lumotlar topilganda yoki ular mavjud bo'limganda, arizani rad etadi yoki uni qayta ishslash uchun qaytaradi.</p> <p>Bunday holda, arizani qayta yuborish vaqtি ko'rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi.</p> <p>b) Ilova qilingan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgan va to'liq bo'lgan taqdirda, ariza va hujjatlarni Direksiya huzuridagi Ekspert komissiyasiga yuboradi.</p>	5 (besh) ish kuni mobaynida

5-bosqich	Ekspert komissiyasi	<p>1. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, arizani rad etish yoki ma'qullah to'g'risida qaror qabul qiladi.</p> <p>2. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, da'vegarga platformada va elektron pochta orqali arizaning ma'qullanganligini (xarajatlarni qoplash uchun mablag' olishga doir talablar ro'yxatini ko'rsatgan holda) yoki rad etilganligini bildiruvchi xabarnoma yuboradi.</p>	10 (o'n) ish kuni mobaynida
6-bosqich	Direksiya	<p>Ariza ma'qullangan taqdirda, da'vegar bilan xarajatlarni qoplash to'g'risida kelishuv tuziladi va pul mablag'lari da'vegarning bank hisob raqamiga o'tkazib beriladi.</p>	Xarajatlarni qoplash to'g'risidagi kelishuv tuzilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida

Inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini
amalga oshiruvchi tadbirdorlik
subyektlariga mentor va trenerlarni jalb
qilish bilan bog'liq xarajatlarni
kompensatsiya qilish mexanizmi
to'g'risidagi nizomga
2-ilova

Xarajatlarni kompensatsiya qilish miqdorini hisoblash jadvali

Inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etgan startaplarning umumiyligi	Foiz vazni
5-10	3%
10-15	5%
15-20	10%
20+	7%

Muvaffaqiyatli yakunlangan inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari soni	Foiz vazni
0	0%
1-2	5%
2-5	7%
5-10	10%
10+	10%

Mentor va trenerlarning malakasi hamda kasbiy tajribasi (bu dasturlar mahalliy yoki xorijiy ekanligini ko'rsating)	Foiz vazni
Mahalliy	2%
Mintaqaviy	5%
Xalqaro	10%

Dasturni o'tkazish formati	Foiz vazni
Onlayn	2%
Oflayn	10%
Aralash	5%

Mentor-trener qatnashgan dasturlar soni	Foiz vazni
1-2	2%
2-4	5%
4-6	10%
6+	10%